

O'RXUN-ENASOY YODGORLIKLAR TARIXIGA OID ASOSIY MANBALAR

THE MAIN SOURCES ON THE HISTORY OF ORHUN ENASAY MONUMENTS

Nosirova Zulfiya Alisher qizi

*CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar **Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

*CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek
tili kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'rxun-Enasoy obidalarining O'zbekistonda o'rganilishi haqida so'z yuritiladi. O'zbekistondan topilgan ko'kturk yodgorliklar izohi yuzasidan fikrlar keltiriladi. Obidalarni tadqiq qilgan o'zbek olimlari, ilmiy asarlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *O'rxun-Enasoy obidalari, N.Raxmonov, ilmiy maktab, Kultegin bitiktoshi, nasriy ilmiy asar.*

Abstract: *This article focuses on the study of the Orkhon-Enasay monuments in Uzbekistan. Comments are made on the description of runic monuments found in Uzbekistan. The works of Uzbek scientists who have studied the monuments will be analyzed.*

Keywords: *Orkhon-Enasay monuments, N.Rakhmonov, scientific school, Kultegin inscription, prose scientific work.*

KIRISH

Tarix davomida ko'plab sivilizatsiyalar ta'sirida bo'lgan madaniyatimiz til sohasida ham ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tishi bilan alifbolardan foydalanishda u joylashgan geografiyaga muvofiq o'zgarishlar yuz bera boshladi. Turklar tomonidan qo'llanilgan birinchi alifbo sifatida tanilgan ko'kturk alifbosi ham hozirgi alifbodan ancha farq qilsa-da, kelib chiqishi jihatidan o'xshashdir. Qadimgi turk xalqi tomonidan qo'llanilgan ko'kturk alifbosidan keyinchalik xunlar, qirg'izlar ham foydalanganlar. Bundan tashqari, Yevropaga ko'chib kelgan turklar va XVI asrda Vengriyada Sekeller deb nomlangan guruh tomonidan ham foydalanishgani izlanishlar davomida ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA

O'rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqida dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messershmith yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilgan edilar. Dastlab, O'rxun, Selenga va To'li daryolari atrofida — Shimoliy Mo'g'ulistondan toshga bitilgan obidalar topildi. Ular O'rxun yodgorliklari nomini oldi. Enasoy daryosi qirg'oqlarida topilgan yodgorliklar ham shu nom bilan ataladi. Yodgorliklar topilganidan keyin ularni o'qish,

o'rganish muammosi ko'ndalang bo'ldi. Ammo bu ish deyarli bir yarim asr mobaynida hech kimning qo'lidan kelmadi. Nihoyat, 1893-yildagina ularni o'qish uchun dastlabki qadam qo'yildi. Shu yili daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V. Radlovlar yodgorliklardagi barcha harflarni o'qidilar. Shundan so'ng ularni jiddiy o'rganish boshlandi. Boshqa xalqlar singari O'zbekistonda ham mazkur yodgorliklarni o'rganishga qiziqish katta bo'ldi. Shu sababdan, maqolada yodgorliklarning O'zbekistonda o'rganilishi mavzusiga to'xtalishni joiz topdik. O'tgan yillar davomida umumturkologiya qadimgi turkiy yodgorliklar sohasida yangi yutuqlarni qo'lga kiritdi, yangi yozuv yodgorliklari topildi va topilmoqda. Lekin bu umumturkiy ma'naviy merosimizni o'rganishda Qosimjon Sodiqov va Nasimxon Raxmonov xizmatlari beqiyos. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. **MUHOKAMALAR VA NATIJALAR**

Q.Sodiqov yodgorliklarning tilini, tarixini va falsafiy qarashlarini o'rganib, ilmiy tadqiqotlar yaratish bilan bir qatorda O'rxun-Enasoy yodgorliklarini o'zbekchaga tabdil qildi. O'zbekistondan topilgan bitiklarga asoslanib, O'zbekiston ko'hna turkiy run yozuvlarining makoni bo'lgan degan xulosaga keldi. Yodgorliklar tili, uslubiyati, dialektikasi, fonetikasi va morfologiyasini o'rgandi. Olimning O'rxun-Enasoy yodgorliklarining tadqiqiga bag'ishlab yozgan asarlarini quyidagi guruhlariga bo'lib o'rgansak, maqsadga muvofiq bo'ladi: 1. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining tilini o'rganishga bag'ishlangan asarlari: "Eski uyg'ur yozuvi", "Qadimgi turkiy yozuvlar" va "Qadimgi turkiy til" fanlaridan dars matnlari, "Ilk o'rta asrlar turkiy matnlari nomlarining izohli lug'ati", "Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi", "Ko'k turk bitiklari va ularning tarixiy talqini" nomli kitoblari, "Yozma yodgorliklarda ayrim undoshlarning taraqqiyot masalasi", "Kul tigin, Bilga xoqon bitiklaridan o'rin olgan "xoqon" so'zining boshlamalari va yodnomalarining matn tuzilishi haqida", "Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarining matniy-qiyosiy tahlili", "O'zbekistonda topilgan ko'k turk xarfli matnlar", "Turk-moniy diniy jamoalarida yaratilgan yozma manbalar", "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" nomli maqolalari, O'rxun-Enasoy yodgorliklarining tilini o'rganishga bag'ishlangan. O'rxun Enasoy yodgorliklarining tarixini o'rganishga doir asarlari: "O'zbek adabiy tili tarixidan", "Uyg'ur yozuvi tarixidan", "Ko'k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini", "Yozuv tarixi va kitobat san'ati", "O'zbek tili tarixi", "Turkiy til tarixi", "O'zbek tilining yozma uslublari tarixidan" nomli kitoblari va "Kultigin va Bilgaxoqon bitiklari: tarixiy manbaning matn tuzilishi" nomli maqolalari O'rxun-Enasoy yodgorliklarining tarixiy tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Q.Sodiqov o'z asarlarida yodgorliklarning til xususiyatlarini va tarixiy, falsafiy tomonlarini yoritgan bo'lsa, N.Rahmonov esa ularni nazariy va badiiy jihatdan yoritib berdi. O'rxun-Enasoy obidalari birinchi navbatda tarixni yoritadi. Xususan, etnik tarix bilan tutashadi. Turkiy qabilalar o'rtasidagi farqlar, asosan, ularning tillari orqali aniqlanadi. Demak, qabilalar tarixini yoritishda ham yodgorliklarning ahamiyati katta. Yozuvning kelib chiqishi, alifbolarning har xilligi, boshqa yozuvlarning turkiy-run yozuviga ta'siri kabi masalalarga ham obidalar matnini o'rganish orqali javob topish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Rahmonov N., B.Matboboyev. O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari. Toshkent, "Fan", 2006;
2. Soatova G. "O'zbekistonda Urxun-Enasoy yofgorliklari tadqiqi" O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020-yil, 6-son;
3. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi- Toshkent: Sharqshunoslik institute,2006;
- 4.www.ziyouz
- 5.library.uz